# ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISH USULLARI

**Fayzullayeva Shaxinabonu**

Osiyo xalqaro universiteti III bosqich talabasi

**Doi :https://doi.org/10.5281/zenodo.20033164**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning samarali usullari, metod va texnologiyalari tahlil qilinadi. Nutq o‘stirish jarayonida interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, ko‘rgazmali vositalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** nutq , og‘zaki nutq, yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, interfaol metod, ijodiy tafakkur, zamonaviy texnologiya, til , adabiyot.

**Kirish:** Hozirgi kunda axborot texnologiyalari tinimsiz rivojlanayotgan paytda yangi innovatsion texnologiyalarga asoslanib ta’limning dunyo standartlariga mos darsliklar yaratish asosiy talablardan biridir. Ona tili fanining yangilangan yo‘nalishidan ko‘zlangan maqsad o‘quvchining ona tilida fikrini aniq va ravon tiniq nutqini shakllantirib bera olish. Nutq - shaxsning fikrini aniq, ravon va mantiqli bayon eta olish qobiliyatidir. Ona tili darslarida nutq o‘stirish o‘quvchilarning tafakkurini, dunyoqarashi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim bosqichida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Ona tili fani o‘quvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, ularni o‘rinli ishlata olish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg‘usini shakllantirish kabi tushunchalarni o‘rgatadi. Nutqning asosiy vositasi tildir. Til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa vositasini bajaradi.

Ona tili darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini chiroyli ifodalashga xizmat qilishdan iborat. Ma’ lumki nutq og‘zaki va yozma ko‘rinishda bo‘ladi. Har ikkala nutqni o‘stirishga qaratilgan matnlar va o‘quvchilar yaratadigan matnlar til hodisalarining mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Yana shuni ham aytib qo‘yish kerakki, she’riy asar mazmunini nasriy yo‘lda bayon etishni talab qilib qo‘yish o‘quvchilarning nutqi rivojlanishida ijobiy natijalar beradi. Matn mazmunini o‘zgartirish ya’ni ixchamlashtirish yoki kengaytirish og‘zaki nutqning rivojlanishiga yordam beradi. Og‘zaki nutqni rivojlantirishda matn mazmunini saralab gapirish usullaridan foydalaniladi. Ona tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirishda xotira mashqlari yaxshi samara beradi.

Bolalar maktabda o‘qish davrida 750 dan ziyod har xil grammatik tushunchalar va ta’riflarga duch keladi. 6500-7000 atrofida turli hajm va murakkablikdagi topshiriqlarni bajaradi. Barcha usullarni qo‘llagan holda hosil qilingan nazariy ilm, ko‘nikmalarni amalda ishlata bilish grammatik topshiriqli matnlar yaratish ona tili darslarida ko‘p ishlatiladigan ijodiy mashg‘ulot turlaridan bo‘lib, ular samarali natija bera olishi bilan ahamiyatlidir. Nutq o‘stirishda 3 yo‘nalishga ajratiladi:

1. So‘z ustida ishlash
2.So‘z birikmasi ustida ishlash
3. Bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

Har uchchala yo‘nalish parallel tarzda faoliyat olib boradi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar nutqni rivojlantirishga qarshi harakat qiladigan faoliyatlar mavjud. Ular o‘quvchilarning uyda , ko‘chada tojik, turkman yoki boshqa sheva tillarida so‘zlashishi. Nutqning to‘g‘ri rivojlanishi uchun adabiy til me’yorlariga rioya qilish talab etiladi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “ Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor, havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman nasib etsa, havas qilsa

arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi." deb ta'kidlagan edilar.

Asosiy qism:

1.Nutq o'stirishning nazariy asoslari

Nutq o'stirish jarayoni til birliklarini ( tovush, so'z, gap, matn) amaliy qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu borada tilshunos olimlar jumladan, Abdulla Qodiriy va G'afur G'ulom asarlaridagi boy til va ifoda vositalari o'quvchilarga namuna bo'la oladi. Badiiy matnlar asosida ishlash nutq boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Nutq o'stirish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Og'zaki nutqni rivojlantirish
2. Yozma nutqni shakllantirish
3.Lug'at boyligini oshirish
4. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

2. Og'zaki nutqni rivojlantirish usullari

Og'zaki nutqni o'stirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

a) suhbat metodi- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi savol- javob asosida muloqot tashkil etiladi.

b) hikoya tuzish - rasm, voqea yoki berilgan so'zlar asosida mustaqil hikoya tuzish topshiriladi.

c) rolli o'yinlar- o'quvchilar ma'lum obrazga kirib, dialoglar tuzadilar.

d) munozara ( bahs) - muayyan mavzu yuzasidan fikr almashish orqali nutq ravonligi oshiriladi.

3. Yozma nutqni rivojlantirish usullari:

Yozma nutq o'quvchining imlo, uslub va mantiqiy tafakkurini shakllantiradi.

Asosiy usullari:

- insho va bayon yozdirish;
- matnni davom ettirish;
- reja asosida matn tuzish;
-lug'aviy diktantlar;
-matn tahlili

yozma ishlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish , tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

4. Interfaol metodlardan foydalanish:

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlar muhim o'rin tutadi:

- " Aqliy hujum"
- " Klaster"
- " Insert"
- " BBB" jadvali

bu metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi va nutqiy faollikni oshiradi.

5. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati:

Rasm , jadval, multimedia vositalari o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Ayniqsa, audio va video materiallar orqali to'g'ri talaffuz va ifodali nutq shakllanadi.

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish - davr talabi.

Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, ona tili fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi.

Shuning uchun ham har bir kishi undan foydalana bilishi va avvalo uning o‘zi to‘la- to‘kis o‘rganib olishga harakat qilish zarur. Tilni o‘rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta’rif va qoidalarni o‘zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash malakalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani o‘quvchiga tilni o‘rgatish bilan birga , tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me’yorlarini ham o‘rgatadi.

Ko‘ngil mahzanining qulfi til,
Va ul mahzanning kalitin bil.
Ki so‘zdur insonni azizu xor,
Bilursen, so‘z ila topar i’tibor.
(Alisher Navoiy).

Xulosa: Ona tili darslarida nutq o‘stirish- uzluksiz va tizimli jarayon. Samarali metod va texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni boyitadi , mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun o‘qituvchi dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi , badiiy matnlar bilan ishlashi va interfaol metodlardan unumli foydalanishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ona tili o‘qitish metodikasi - Toshkent: o‘qituvchi nashriyoti,2018
2. A. Muhiddinov “ o‘quv jarayonida nutq faoliyati” Toshkent- 1995
3. Q. Abdullayeva “ Nutq o‘stirish” Toshkent-1980
4. Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalar -Toshkent : Tafakkur,2020
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ona tili fanidan davlat ta’lim standarti .Toshkent, 2021.